

Kreativ iqtisodiyotni baholash bo'yicha uslubiy nizom

Kreativ iqtisodiyotni baholash bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom) O'zbekiston Respublikasining “Kreativ iqtisodiyot to'g'risida”gi Qonunida belgilangan vazifalar doirasida, kreativ iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini, shu jumladan kreativ mahsulotlarni ishlab chiqarish, sotish va tashqi savdo aylanmasi hajmini, kreativ industriya sohaslarida subyektlar soni, bandlik hamda investitsiyalar hajmining hisobini yuritish qoidalarini belgilab beradi.

Nizomni ishlab chiqishda “Milliy hisoblar tizimi – 2008” (keyingi o'rinlarda – MHT–2008) xalqaro standarti, BMT va Yevrostatning kreativ iqtisodiyotga oid faoliyat turlari bo'yicha qo'llanma va tavsiyalari, xorijiy davlatlarning tajribalaridan foydalanilgan.

Ushbu Nizom statistika organlari tomonidan kreativ iqtisodiyot bo'yicha statistika ma'lumotlarini shakllantirishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

kreativ industriya – ijodiyot, intellektual qobiliyat, shuningdek, intellektual mulk ustuvorligiga asoslangan va iqtisodiy qimmatga ega bo'lgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yaratish, ishlab chiqarish, saqlash, tarqatish va ilgari surish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlarining majmui;

kreativ industriya subyektlari – kreativ mahsulotni yaratish, ishlab chiqarish, saqlash, tarqatish va ilgari surish bilan shug'ullanadigan jismoniy va yuridik shaxslar;

kreativ iqtisodiyot – ijodiyot, intellektual qobiliyat, shuningdek, innovatsiyalarga hamda texnologiyalarga asoslangan inson salohiyati natijasida iqtisodiy qimmatga ega bo'lgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yaratishga qaratilgan iqtisodiyot tarmog'i;

kreativ mahsulot – kreativ iqtisodiyot sohasida iqtisodiy qimmatga ega bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar), shuningdek, boshqa fuqaroviy-huquqiy bitimlar obyektlari.

yalpi ichki mahsulot (YAIM) – Milliy hisoblar tizimi (MHT)ning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanib, iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini hamda ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettiradi;

ishlab chiqarish – hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasi bo'lib, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatini o'zida aks ettiradi;

oralik iste'mol – ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar sifatida iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettiradi (asosiy kapital iste'moli sifatida aks ettiriladigan asosiy fondlar iste'moli bunga kiritilmaydi);

yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'raligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

2. Kreativ industriya sohalaridagi faoliyat yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- adabiy ijod;
- amaliy san'at va hunarmandchilik;
- arxitektura, loyihalashtirish va urbanistika;
- audiovizual san'at;
- ijrochilik san'ati;
- konsert-tomosha faoliyatini va ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish;
- moda va dizayn san'ati;
- muzeylar, badiiy galereyalar (ko'rgazmalar), axborot-kutubxona faoliyati;
- nashriyot va matbaa sohasidagi ijodiy faoliyat;
- ommaviy axborot vositalari sohasidagi va Internet jahon axborot tarmog'i orqali uzatish yo'li bilan amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat;
- prodyuserlik faoliyati;
- raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyat;
- reklama sohasidagi ijodiy faoliyat;
- san'at ashyolari va madaniy meros obyektlarini asrashga doir faoliyat;
- tasviriy san'at.

3. Statistika organlari tomonidan kreativ iqtisodiyot bo'yicha statistika ma'lumotlarini shakllantirish quyidagi manbalardan foydalangan holda amalga oshiriladi:

- statistika kuzatuvlari shakllari ma'lumotlari;
- vazirlik va idoralarning ma'lumotlar bazalaridan integratsiya tizimi orqali olinadigan axborot va ma'lumotlar;
- ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning statistika va (yoki) ma'muriy ma'lumotlari.

4. Kreativ iqtisodiyot bo'yicha statistika ma'lumotlarini shakllantirish yillik davriylikda tashkil etiladi.

2-bob. Kreativ industriya sohalarining O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2) kodlari bo'yicha mosligi

5. O'zbekiston Respublikasining "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi Qonunida belgilangan kreativ industriya sohalarini bo'yicha ko'rsatkichlarni shakllantirish, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2) kodlari asosida tuzilgan, ushbu Nizomning 1-ilovasida keltirilgan kreativ industriya sohasidagi iqtisodiy faoliyat turlari yig'ma ro'yxatiga (keyingi o'rinlarda – kreativ industriya sohasi yig'ma ro'yxati) muvofiq amalga oshiriladi.

6. Kreativ industriya sohasidagi iqtisodiy faoliyat turlari yig'ma ro'yxati kelgusida xalqaro tavsiyalar va xorijiy tajribalar asosida, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (keyingi o'rinlarda – Milliy statistika qo'mitasi) tomonidan to'ldirilishi hamda unga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

3-bob. Kreativ iqtisodiyot ko'rsatkichlarini baholash

1-§. Kreativ iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi

7. Kreativ iqtisodiyot ko'rsatkichlari MHT–2008da qabul qilingan yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullariga muvofiq aniqlanadi.

Kreativ iqtisodiyotning YAIMdagi ulushini hisoblash Statistika dasturida ko'zda tutilgan muddatlarda hamda yillik davriylikda shakllantiriladi.

Kreativ iqtisodiyot bo'yicha ishlab chiqarishni baholash uchun axborot manbai bo'lib, har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturida bajarilishi nazarda tutilgan keng ko'lamdagi axborot resurslari (yirik, kichik tijorat korxonalari, mikrofirmalarning yillik statistika hisobotlari, yakka tartibdagi tadbirkorlarning tanlanma kuzatuvlari, uy xo'jaliklari kuzatuvlari, korxonalar va tashkilotlarning tarkibiy kuzatuvlari) xizmat qiladi.

8. Kreativ iqtisodiyot bo'yicha qo'shilgan qiymat hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar kreativ industriya sohasi yig'ma ro'yxati bo'yicha ishlab chiqarish hajmidan oraliq iste'mol hajmini ayirish orqali quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$GVA_i = O_i - IC_i \quad (1)$$

bu yerda:

GVA_i – i - kreativ iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi;

O_i – i - kreativ iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha ishlab chiqarish hajmi;

IC_i – i - kreativ iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha oraliq iste'mol hajmi.

9. Oraliq iste'mol hajmi iqtisodiy faoliyat turining 2 xonali bo'lim darajasida ishlab chiqarish hisobida mavjud oraliq iste'mol ulushini qo'llash orqali quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$IC_i = \frac{O_i \times k_i}{100} \quad (2)$$

bu yerda:

IC_i – i -kreativ iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha oraliq iste'mol hajmi;

O_i – i -kreativ iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha ishlab chiqarish hajmi;

k_i – i -kreativ iqtisodiy faoliyat turining 2 xonali bo'lim darajasida ishlab chiqarish hisobining yillik yakunlari bo'yicha oraliq iste'mol ulushi.

10. Kreativ iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi kreativ iqtisodiyotda yaratilgan YAQQ hajmini iqtisodiyot tarmoqlarining YAQQga bo'lib yuzga ko'paytirish orqali quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Sh = \frac{\sum_{i=1}^n GVA_i}{GVA} \times 100 \quad (3)$$

bu yerda:

Sh – kreativ iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi, % da;

GVA_i – i - kreativ iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi;
 GVA – jami iqtisodiyot tarmoqlarining yalpi qo'shilgan qiymati (YAQQ) hajmi;
 n – kreativ iqtisodiy faoliyat turlari soni.

2-§. Kreativ mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish

11 O'zbekistonda sanoat statistikasi xalqaro standartlar asosida yuritiladi, jumladan, "Milliy hisoblar tizimi" (MHT–2008) va "Sanoat statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT 2008-yil).

Sanoat ishlab chiqarishi hajmini shakllantirish ko'rib chiqilayotgan yil uchun yirik tijorat va notijorat tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha aniqlangan statistik hisobot ma'lumotlari, shuningdek, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar o'rtasida o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar natijalari asosida (baholab) amalga oshiriladi.

12. Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarini turlari bo'yicha tasniflash O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST) ga muvofiq amalga oshiriladi.

13. Kreativ mahsulotlar turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi kreativ industriya sohasi yig'ma ro'yxati asosida 2-ilovada keltirilgan mahsulot turlari kesimida shakllantiriladi.

14. Kreativ mahsulotlar turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ulushini aniqlash tasdiqlangan ro'yxat asosida quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$Sh_{cp} = \frac{P_c}{P_t} \times 100 \quad (4)$$

bu yerda:

Sh_{cp} – kreativ mahsulotlar turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlarining jami sanoat ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy qiymatidagi ulushi;

P_c – kreativ faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlarning jami qiymati;

P_t – ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy qiymati.

15. Xizmatlar sohasi statistikasi xalqaro standartlar asosida yuritiladi, jumladan, "Milliy hisoblar tizimi" (MHT–2008) va "Axborot iqtisodiyoti statistikasini yuritish bo'yicha qo'llanma" (BMT, 2014).

16. Xizmatlar hajmini shakllantirish ko'rib chiqilayotgan yil uchun yirik tijorat va notijorat tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha aniqlangan statistik hisobot ma'lumotlari, shuningdek, xizmat ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar o'rtasida o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar natijalari asosida (baholab) amalga oshiriladi.

17. Kreativ faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi kreativ industriya sohasi yig'ma ro'yxati asosida 3-ildavda keltirilgan kreativ industriya sohalaridagi xizmat faoliyat turlari bo'yicha shakllantiriladi.

18. Kreativ faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari ulushini aniqlash tasdiqlangan ro'yxat asosida quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$Sh_{cs} = \frac{Sc}{St} \times 100 \quad (5)$$

bu yerda:

Sh_{cs} – kreativ faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari ulushi;

St – ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmi;

Sc – kreativ faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmi.

3-§. Kreativ mahsulotlarni sotish

19. Kreativ mahsulotlar hamda xizmatlarni sotish hajmi tijorat korxonalar uchun yillik statistika hisoboti shakllarining sanoat mahsulotlari bobidan hamda ko'rsatilgan bozor xizmatlari bobidan, shuningdek, notijorat tashkilotlar uchun yillik statistika hisoboti shakllarining ko'rsatilgan bozor xizmatlari ko'rsatkichlaridan foydalanib hisoblanadi.

20. Bunda, korxonalar tomonidan umumiy iqtisodiy faoliyat turlari ichidan faqat kreativ industriya sohasi yig'ma ro'yxatidagi faoliyat turlari bilan shug'ullangan hamda hisobotlarda mahsulot va xizmatlar statistik tasniflagichi bo'yicha aynan kreativ iqtisodiyot tarkibiga kirgan faoliyat turlarini ko'rsatgan taqdirda, sotilgan sanoat mahsuloti hajmi va ko'rsatilgan xizmatlar hajmlari bir-biriga qo'shiladi va har bir hisobot shakli bo'yicha aniqlangan mahsulot va xizmatlarni sotish hajmlarini bir-biriga qo'shish orqali quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$S_{cps} = S_{cp} + S_{cs} \quad (6)$$

bu yerda:

S_{cps} – kreativ mahsulotlar hamda xizmatlarni sotish hajmi;

S_{cp} – sanoat sohasida kreativ faoliyat bo'yicha sotilgan sanoat mahsulotlari hajmi;

S_{cs} – ko'rsatilgan bozor xizmatlari sohasida kreativ faoliyat bo'yicha sotilgan xizmatlar hajmi.

4-§. Kreativ mahsulotlarning tashqi savdo (eksporti va importi) aylanmasidagi hajmi

21. Kreativ iqtisodiyotning tashqi savdo aylanmasi:

“Xalqaro tovarlar savdosi statistikasi: konsepsiya va ta'riflar”;

“Xizmatlar xalqaro savdosi statistikasi bo'yicha qo'llanma”;

“To‘lov balansi va xalqaro investitsiya pozitsiyasi bo‘yicha qo‘llanma”da belgilangan qoida va tavsiyalar asosida shakllantirilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy tashqi savdo aylanmasi statistikasi ma’lumotlaridan shakllantiriladi.

22. Kreativ iqtisodiyotning tashqi savdo aylanmasi hajmi to‘g‘risidagi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirish ikkita asosiy ma’lumot manbalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi:

tovarlar tashqi savdosi statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish uchun bojxona deklaratsiyalari ma’lumotlari;

xizmatlar tashqi savdosi statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish uchun korxonalar tomonidan taqdim etilgan statistika hisoboti shakllari.

23. Bunda, kreativ iqtisodiyotning tashqi savdo aylanmasi hajmi kreativ industriya sohasi yig‘ma ro‘yxati mos keladigan 4-ilovada keltirilgan mahsulot va xizmatlar ro‘yxatiga muvofiq, kreativ mahsulot va xizmatlarning eksport va import hajmlari umumiy yig‘indisini aniqlash orqali shakllantiriladi.

Kreativ mahsulotlar ro‘yxatini shakllantirishda ishlab chiqarish va xizmatlar sohasi statistikasi ma’lumotlaridan foydalaniladi. Shuningdek, ma’lumotlarning xalqaro darajada taqqoslanuvchanligini ta’minlash maqsadida, kreativ mahsulotlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) hamda Kengaytirilgan to‘lov balansi xizmatlari tasnifi asosida shakllantiriladi.

24. Kreativ iqtisodiyot tashqi savdo aylanmasining umumiy tashqi savdo aylanmasidagi ulushini aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Sh_{ftcps} = \frac{FT_{cps}}{FT_t} \times 100 \quad (7)$$

bu yerda:

Sh_{ftcps} – kreativ iqtisodiyot tarkibiga kiruvchi tovarlar va xizmatlarning umumiy tashqi savdo aylanmasidagi ulushi;

FT_{cps} – kreativ iqtisodiyot tarkibiga kiruvchi tovarlar va xizmatlarning tashqi savdo aylanmasi hajmi;

FT_t – umumiy tashqi savdo aylanmasi hajmi.

25. Kreativ mahsulotlarning umumiy eksport hajmidagi ulushi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Sh_{excps} = \frac{Ex_{cps}}{Ex_t} \times 100 \quad (8)$$

bu yerda:

Sh_{excps} – kreativ iqtisodiyot tarkibiga kiruvchi tovarlar va xizmatlarning umumiy eksport hajmidagi ulushi;

Ex_{cps} – kreativ iqtisodiyot tarkibiga kiruvchi tovarlar va xizmatlarning eksport hajmi;

Ex_t – umumiy eksport hajmi.

26. Kreativ iqtisodiyot mahsulotlarining umumiy import hajmidagi ulushi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Sh_{imcps} = \frac{Im_{cps}}{Im_t} \times 100 \quad (9)$$

bu yerda:

Sh_{imcps} – kreativ iqtisodiyot tarkibiga kiruvchi tovarlar va xizmatlarning umumiy import hajmidagi ulushi;

Im_{cps} – kreativ iqtisodiyot tarkibiga kiruvchi tovarlar va xizmatlarning import hajmi;

Im_t – umumiy import hajmi.

Kreativ iqtisodiyotning tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmlari ming AQSH dollarida, uning umumiy tashqi savdo aylanmasidagi ulushi foiz hisobida aks ettiriladi.

5-§. Kreativ industriya subyektlari sonini aniqlash

27. Kreativ industriya subyektlari sonini aniqlash va uning hisobini yuritish Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi nizomga muvofiq ro'yxatdan o'tkazuvchi organlardan tushadigan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

28. Kreativ industriya sohasi yig'ma ro'yxati asosida kreativ industriya sohalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kreativ industriya subyektlari soni to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantiriladi.

Kreativ industriya subyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar tijorat korxona (yirik tashkilot, kichik korxona va mikrofirmalar) va notijorat tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisobotlar asosida yig'iladi.

6-§. Kreativ industriya sohalaridagi bandlikni aniqlash

29. Kreativ industriya sohalarida bandlik O'zbekiston Respublikasining mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini hisoblash doirasida aniqlanadi.

30. Kreativ industriya sohalaridagi band bo'lganlar soni kreativ industriya sohasi yig'ma ro'yxati bo'yicha tarmoqlarda faoliyat ko'rsatayotganlar sonidan kelib chiqib shakllantiriladi.

31. Kreativ industriya sohasi yig'ma ro'yxatiga mos keluvchi bandlar sonining barcha bandlar soniga nisbatini hisoblash orqali kreativ industriya sohalaridagi bandlik ulushi ko'rsatkichi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Sh_{ece} = \frac{E_{ce}}{E_t} \times 100 \quad (10)$$

bu yerda:

Sh_{ece} – kreativ sohalaridagi bandlik ulushi, %;

E_{ce} – kreativ sohalarida bandlar soni;

E_t – jami bandlar soni.

Bunda, kreativ industriya sohasi yig'ma ro'yxatida band bo'lganlar soni statistika idoralari tomonidan jamlanadigan yillik hisobotlar hamda Yagona milliy mehnat tizimi idoralararo dasturiy apparat kompleksi va Soliq qo'mitasining elektron axborot tizimi ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

7-§. Kreativ startaplar va loyihalarga investitsiyalar hajmini aniqlash

32. Kreativ faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmini shakllantirish ko'rib chiqilayotgan yil uchun statistika hisoboti ma'lumotlari, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi bo'yicha Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmalarining statistika hisobotlari, foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

33. Kreativ faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi kreativ industriya sohasi yig'ma ro'yxati asosida har bir faoliyat turidagi kapital qo'yilma hajmlarini yig'indisi orqali shakllantiriladi.

34. Kreativ faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar ulushini aniqlash tasdiqlangan ro'yxat asosida quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$Sh_{ic} = \frac{I_c}{I_t} \times 100 \quad (11)$$

bu yerda:

Sh_{ic} – kreativ faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi;

I_t – asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmi;

I_c – kreativ faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

35. Kreativ iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi to'g'risidagi ma'lumotlar milliy hisoblar ko'rsatkichlarining aniqlik kiritilgan hisob-kitoblari asosida qayta hisoblanishi mumkin.

36. Ushbu Nizomning 2-4-ilovalari bilan tasdiqlangan mahsulotlar va xizmatlar turlari, tashqi savdo aylanmasi tarkibiga kiruvchi kreativ tovarlar ro'yxati kelgusida xalqaro tavsiyalar va xorijiy tajribalar asosida Milliy statistika qo'mitasi tomonidan to'ldirilishi hamda unga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

37. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Advancing the measurement of the creative economy. A revised framework for creative industries and trade, United Nations, Geneva, 2024;
2. Creative Economy Outlook 2024. Technical and statistical report. United Nations Conference on Trade and Development, 2024;
3. Перспективы креативной экономики в 2022 году. Обзор. Конференция Организации Объединенных Наций по торговле и развитию;
4. Guide to Eurostat culture statistics, 2018 edition, Manuals and guidelines;
5. Система национальных счетов 2008. Нью-Йорк, 2012 год;
6. International Standard Industrial Classification of All Economic Activities (ISIC) Revision 5. United Nations
7. Creative Industries Economic Estimates Methodology. Department for Culture Media and Sport. UK, 2016;
8. Методические рекомендации по формированию собирательных классификационных группировок и системы показателей креативной экономики. Институт статистических исследований и экономики знаний. Москва, 2025;
9. Постановление Правительства Республики Казахстан «Об утверждении перечня видов экономической деятельности, относящихся к креативной индустрии» от 6 июня 2023 года № 448.
10. Минэкономразвития России Федеральная служба государственной статистики. Приказ «Об утверждении Официальной статистической методологии расчета показателей «Валовая добавленная стоимость креативной экономики», «Доля валовой добавленной стоимости креативной экономики в валовом внутреннем продукте Российской Федерации» и «Индекс физического объема валовой добавленной стоимости креативной экономики»» 21 марта 2025 г. №138, Москва;
11. Министерство культуры Российской Федерации. Приказ №2931 от 20 октября 2023 года. «Об утверждении собирательной классификационной группировки видов экономической деятельности в области деятельности творческих (креативных) индустрий на основе Общероссийского классификатора видов экономической деятельности (ОКВЭД 2) ОК 029-2014 (КДЕС Ред. 2)»;
12. Министерство Экономического развития Российской Федерации. Приказ №266 23 апреля 2025г. «Об утверждении перечня видов экономической деятельности в сфере креативных (творческих) индустрий на основе Общероссийского классификатора видов экономической деятельности»;
13. “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi, 2-tahrir” (IFUT-2). “O‘zstandart” agentligining 2011-yil 28-yanvardagi 05-268-son qarori (O‘zDT005:2011).
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi “Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko‘rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 539-son qarori.

**“O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat
tasniflagichi” (IFUT-2) kodlari bo'yicha kreativ industriya
sohasidagi iqtisodiy faoliyat turlari yig'ma ro'yxati**

T/r	Kod	Nomlanishi
I. Adabiy ijod		
1	90.03.0*	San'at sohasidagi faoliyat
II. Amaliy san'at va hunarmandchilik		
2	13.91.0	To'qilgan va trikotaj polotno ishlab chiqarish
3	13.92.0*	Kiyimdan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish
4	13.93.0	Gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish
5	13.99.0*	Boshqa toifalarga kiritilmagan to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish
6	14.11.0*	Charmdan kiyimlar ishlab chiqarish
7	14.13.0*	Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish
8	14.14.0*	Ichki kiyimlar ishlab chiqarish
9	14.19.0*	Boshqa kiyimlar va aksessuarlar ishlab chiqarish
10	14.20.0*	Mo'ynali mahsulotlar ishlab chiqarish
11	15.12.0*	Chemodanlar, ayollar sumkalari va teridan boshqa buyumlar ishlab chiqarish
12	15.20.0*	Poyafzal ishlab chiqarish
13	16.29.0	Boshqa yog'och buyumlar ishlab chiqarish; po'kak, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish
14	17.11.0*	Qog'oz massasi va sellyuloza ishlab chiqarish
15	17.12.0*	Qog'oz va karton ishlab chiqarish
16	17.22.0*	Xo'jalik-maishiy va sanitariya-gigiyenaga mo'ljallangan qog'oz buyumlar ishlab chiqarish
17	17.23.0*	Yozuv qog'ozi ishlab chiqarish
18	17.24.0*	Gulqog'oz ishlab chiqarish
19	17.29.0*	Qog'oz va kartondan boshqa buyumlar ishlab chiqarish
20	22.29.0*	Boshqa plastmassa buyumlar ishlab chiqarish
21	23.11.0	Listlangan shisha ishlab chiqarish
22	23.12.0	Listlangan shishani qoliplash va ishlov berish
23	23.13.0	Kovak shisha buyumlar ishlab chiqarish
24	23.14.0	Shisha tola ishlab chiqarish
25	23.19.0	Boshqa shisha buyumlarni, jumladan texnik buyumlarni, ishlab chiqarish va ishlov berish
26	23.41.0	Maishiy va dekorativ keramik buyumlar ishlab chiqarish
27	23.49.0	Boshqa keramik buyumlar ishlab chiqarish
28	25.71.0*	Ovqatlanish anjomlari ishlab chiqarish
29	25.72.0*	Qulf, ilmoq va oshiq-moshiqlar ishlab chiqarish
30	25.73.0*	Asboblar ishlab chiqarish
31	25.91.0*	Metall bochkalar va shu kabi idishlar ishlab chiqarish
32	25.92.0*	Yengil metallardan upakovka materiallari ishlab chiqarish
33	25.93.0*	Simdan buyumlar, zanjirlar va prujinalar ishlab chiqarish
34	25.94.0*	Mahkamlash uchun va rezbali buyumlar ishlab chiqarish
35	25.99.0*	Boshqa toifalarga kiritilmagan tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish
36	27.40.0*	Elektr yoritish uskunalari ishlab chiqarish
37	28.95.0*	Qog'oz va karton tayyorlash uchun mashina va uskunalar ishlab chiqarish
38	28.96.0*	Plastmassa va rezinani qayta ishlash uchun uskunalar ishlab chiqarish
39	28.99.0*	Boshqa toifalarga kiritilmagan, maxsus vazifalarga mo'ljallangan boshqa mashina va uskunalar ishlab chiqarish
40	31.01.0*	Ofis va magazinlar uchun mebel ishlab chiqarish
41	31.02.0*	Oshxona uchun mebel ishlab chiqarish
42	31.03.0*	To'shaklar ishlab chiqarish
43	31.09.0*	Boshqa mebellar ishlab chiqarish

44	32.12.0	Zargarlik buyumlari va shu kabi buyumlar ishlab chiqarish
45	32.13.0	Bijuteriya va shu kabi buyumlar ishlab chiqarish
46	32.40.0*	O'yin va o'yinchoqlar ishlab chiqarish
47	32.50.0*	Meditina va stomatologiya asboblari va jihozlari ishlab chiqarish
48	32.91.0*	Supurgi va cho'tkalar ishlab chiqarish
49	32.99.0*	Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish
III. Arxitektura, loyihalashtirish va urbanistika		
50	71.11.0	Me'morchilik sohasidagi faoliyat
51	71.12.0	Muhandislik izlanishlari sohasidagi faoliyat va bu sohalarda texnik maslahatlar berish
IV. Audiovizual san'at		
52	59.11.0	Kino- videofilmlar va televizion dasturlar ishlab chiqarish
53	59.12.0	Kino- videofilmlar va televizion dasturlarni ishlab chiqarishdan keyingi bosqich
54	59.13.0	Kinofilmlar, video va televizion dasturlarni tarqatish
55	59.14.0	Kinofilmlar namoyish qilish
56	59.20.0	Fonogrammalar va musiqali yozuvlarni nashr qilish bo'yicha faoliyat
57	74.20.0	Fotografiya sohasidagi faoliyat
V. Ijrochilik san'ati		
58	90.01.0	Teatrlar faoliyati
59	90.03.0*	San'at sohasidagi faoliyat
VI. Konsert-tomosha faoliyatini va ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish		
60	18.20.0	Axborot tarqatuvchilardagi yozuvlarni aks ettirish
61	32.20.0	Musiqqa asboblari ishlab chiqarish
62	85.52.0	Madaniyat sohasidagi ta'lim
63	90.02.0*	Spektakllar namoyishini texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash
64	90.04.0	Teatr va konsert zallari faoliyati
VII. Moda va dizayn san'ati		
65	74.10.0	Ixtisoslashgan dizaynerlik faoliyati
VIII. Muzeylar, badiiy galereyalar (ko'rgazmalar), axborot-kutubxona faoliyati		
66	91.01.0	Kutubxonalar va arxivlar faoliyati
67	91.02.0	Muzeylar faoliyati
IX. Nashriyot va matbaa sohasidagi ijodiy faoliyat		
68	18.12.0	Matbaa faoliyatining boshqa turlari
69	18.13.0	Bosma shakllarni tayyorlash va informatsion faoliyat
70	18.14.0	Broshyuralash-muqovalash va pardoqlash faoliyati va ular bilan bog'liq xizmatlar
71	58.11.0	Kitoblar nashr qilish
72	58.19.0	Nashriyotchilik faoliyatining boshqa turlari
73	74.30.0	Yozma va og'zaki tarjima
X. Ommaviy axborot vositalari sohasidagi va Internet jahon axborot tarmog'i orqali uzatish yo'li bilan amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat		
74	18.11.0	Gazetalar nashr qilish
75	58.13.0	Gazetalar nashr qilish
76	58.14.0	Jurnallar va davriy nashrlar nashr qilish
77	60.10.0	Radioeshittirish
78	60.20.0	Televizion dasturlarni yaratish va namoyish qilish bo'yicha faoliyat
79	63.12.0	Web-portallar
80	63.91.0	Axborot agentliklari faoliyati
XI. Prodyuserlik faoliyati		
81	90.02.0*	Spektakllar namoyishini texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash
XII. Raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyat		
82	26.11.0*	Elektron qismlar ishlab chiqarish
83	26.12.0*	Elektron yuklash panellari ishlab chiqarish
84	26.20.0*	Kompyuterlar va periferik uskunalari ishlab chiqarish
85	26.40.0*	Maishiy elektronika asboblari ishlab chiqarish
86	58.21.0	Kompyuter o'yinlarini chiqarish
87	58.29.0	Boshqa dasturiy ta'minotlarni chiqarish
88	62.01.0	Kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat
89	62.02.0	Kompyuter texnologiyalari sohasidagi maslahat xizmatlari
90	62.03.0	Kompyuter uskunalari boshqarish bo'yicha faoliyat
91	62.09.0	Axborot texnologiyalari va kompyuter tizimlari sohasidagi boshqa faoliyat turlari

92	63.11.0	Ma'lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar
93	63.99.0	Boshqa toifalarga kiritilmagan, axborot xizmati ko'rsatish bo'yicha boshqa faoliyat
XIII. Reklama sohasidagi ijodiy faoliyat		
94	73.11.0	Reklama agentliklari
95	73.12.0	Ommaviy axborot vositalarida reklama berish
XIV. San'at ashyolari va madaniy meros obyektlarini asrashga doir faoliyat		
96	91.03.0	Tarixiy joylar va binolarni, madaniyat yodgorliklarini asrash bo'yicha faoliyat
XV. Tasviriy san'at		
97	90.03.0	San'at sohasidagi faoliyat

**Ba'zi ijodiy tovarlar ishlab chiqarishga hissa qo'shadigan sohalar*

Kreativ faoliyat sohasida ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari turlari

Kod MST	Mahsulotlar nomi
13.91.0	To'qilgan va trikotaj polotno ishlab chiqarish
13.91.11.0	Mashinada yoki qo'lda to'qilgan tukli va paxmoq trikotaj polotnolar
13.91.19.1	Trikotaj materiallardan to'qilgan sun'iy mo'yna
13.91.19.2	Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar
13.91.99.0	Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari
13.92.0*	Kiyimdan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish
13.92.11.0	Adyollar va yo'lda ishlatiladigan pledlar (elektr adyollardan tashqari)
13.92.12.0	Ko'rpa-to'shak belyosi
13.92.13.0	Sochiq-dasturxonlar
13.92.14.1	Pardoz va oshxona uchun paxta ipdan to'qilgan paxmoq sochiqbop gazlamadan tikilgan belyo
13.92.14.9	Pardoz va oshxona uchun boshqa belyo
13.92.15.0	Interyerlar uchun pardalar va darpardalar, krovatlar uchun pardalar va to'r hoshiyalar
13.92.16.1	Belgiya gobeleni va shu kabi gobelenlardek qo'lda tayyorlangan dekorativ gazlamalar va ishlov berilgan yoki berilmagan, igna bilan kashta tikilgan gobelenlar
13.92.16.2	O'rin yoping'ichi (qavilgan par ko'rpalardan tashqari)
13.92.16.3	Boshqa guruhlariga kiritilmagan mebel-dekoratsiya mahsulotlari
13.92.16.9	Chakana savdo uchun o'rab joylangan pledlar, gobelenlar, kashtali dasturxonlar, qo'l sochiqlar va shu kabilarni tayyorlash uchun gazlamalar va iplar to'plami
13.92.21.0	Narsa joylanadigan qoplar va paketlar
13.92.22.1	Brezentlar, soyabonlar, chodirlar, tentlar
13.92.22.9	Yelkanlar va kemping uchun boshqa anjomlar
13.92.23.0	Parashyutlar (jumladan boshqariluvchi parashyutlar) va rotoshyutlar (aylanuvchi parashyutlar); ularning qismlari
13.92.24.1	Qopko'rpalar
13.92.24.2	Qavilgan, par va pat adyollar
13.92.24.3	Par va pat yostiqlar
13.92.24.9	Boshqa guruhlariga kiritilmagan, prujinali yoki turli materiallar bilan to'ldirilgan, yoki g'ovak rezina yoki polimer materiallardan iborat divan yostiqlari, puflar, o'rin-ko'rpa anjomlari
13.92.29.0	Boshqa tayyor to'qimachilik mahsulotlari, jumladan pol yuvish, idish yuvish, chang artish uchun lattalar va shu kabi tozalash uchun ishlatiladigan lattalar, qutqarish nimchalari va kamarlari
13.92.99.0	Tayyor to'qimachilik mahsulotlarini (kiyimdan tashqari) ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari
13.93.0	Gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish
13.93.11.0	Tugunchali to'qilgan gilam va boshqa to'qimachilik pol qoplamalari
13.93.12.0	To'qilgan gilamlar va boshqa to'qimachilik pol qoplamalari (igna bilan tikilgan yoki flokirovka qilinganlaridan tashqari)
13.93.13.0	Igna bilan tikilgan gilamlar va boshqa to'qimachilik pol qoplamalari
13.93.19.1	Kigizdan to'qilgan gilamlar va boshqa to'qimachilik pol qoplamalari (igna bilan tikilgan yoki flokirovka qilinganlaridan tashqari)
13.93.19.2	Boshqa guruhlariga kiritilmagan gilamlar va boshqa to'qimachilik pol qoplamalari
13.93.99.0	Gilam va gilam mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari
13.99.0*	Boshqa toifalarga kiritilmagan to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

Kod MST	Mahsulotlar nomi
13.99.11.1	Tyul va boshqa to'rsimon polotnolar (to'qilgan, trikotaj yoki to'qima polotnolardan tashqari)
13.99.11.2	Kesilmagan bo'laklardagi, tasma yoki alohida naqsh shaklidagi to'rlar
13.99.12.0	Kesilmagan bo'laklardagi, tasma yoki alohida naqsh shaklidagi kashtalar
13.99.13.0	Fetr va kigiz, jumladan qoplamali, to'yintirilgan yoki laminatsiya qilingan
13.99.14.0	Uzunligi 5 mmdan oshmagan to'qimachilik tolalari, to'qimachilik tugunchalari va changi
13.99.15.0	Zar uqali va lentali ip; baxmal ip; shakldor ilgakli iplar
13.99.16.0	Kesilmagan bo'laklardagi qavilgan to'qimachilik materiallari
13.99.19.0	Boshqa guruhlariga kiritilmagan boshqa to'qimachilik materiallari va buyumlari
13.99.99.0	Boshqa guruhlariga kiritilmagan boshqa to'qimachilik buyumlarini ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari
14.11.0*	Charmdan kiyimlar ishlab chiqarish
14.11.10.1	Charm palto va plashlar
14.11.10.2	Charm komplektlar
14.11.10.3	Charm kurtka, pidjak, jaketlar
14.11.10.4	Charm shim va yubkalar
14.11.10.9	Boshqa charm kiyimlar
14.11.99.0	Charm kiyim ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari
14.13.0*	Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish
14.13.11.0	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun trikotaj yoki to'qilgan palto, kalta palto, nakidkalar, plashlar, kurtkalar (jumladan chang'ichilar uchun), vetrovkalar, shtormovkalar va shu kabi buyumlar
14.13.12.0	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj kostyumlar, komplektlar, pidjaklar, bleyzerlar, shimlar, ko'krakpechli va yelka tasmali kombinezonlar, bridji va shortilar (cho'milish uchun mo'ljallanganidan tashqari)
14.13.13.0	Ayollar yoki qizlar uchun mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj palto, kalta palto, nakidkalar, plashlar, kurtkalar (jumladan chang'ichilar uchun), vetrovkalar, shtormovkalar va shu kabi buyumlar (pidjaklar va bleyzerlardan tashqari)
14.13.14.0	Ayollar yoki qizlar uchun mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj kostyumlar, komplektlar, jaketlar, ko'ylaklar, yubkalar, yubka-shimlar, shimlar, ko'krakpechli va yelka tasmali kombinezonlar, shortilar
14.13.21.1	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun palto, kalta paltolar, plashlar (mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj buyumlardan tashqari)
14.13.21.2	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun kurtkalar (jumladan chang'ichilar uchun), vetrovka, shtormovka va shu kabi buyumlar (mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj buyumlardan tashqari)
14.13.22.1	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun to'qimachilik materiallaridan kostyumlar (trikotajdan tashqari)
14.13.22.2	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun to'qimachilik materiallaridan komplektlar (trikotajdan tashqari)
14.13.23.0	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun pidjaklar va bleyzerlar, jaketlar, pidjaksimon kurtkalar (trikotajdan tashqari)
14.13.24.1	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun shimlar va bridjilar (trikotajdan tashqari)
14.13.24.2	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun ko'krakpechli va yelka tasmali kombinezonlar (trikotajdan tashqari)
14.13.24.3	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun shortilar (trikotajdan tashqari)
14.13.31.1	Ayollar yoki qizlar uchun palto, kalta palto, plashlar (mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj buyumlardan tashqari)
14.13.31.2	Ayollar yoki qizlar uchun kurtkalar (jumladan chang'ichilar uchun), vetrovka, shtormovka va shu kabi buyumlar (mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj buyumlardan tashqari)
14.13.32.1	Ayollar yoki qizlar uchun to'qimachilik materiallaridan kostyumlar (trikotajdan tashqari)
14.13.32.2	Ayollar yoki qizlar uchun to'qimachilik materiallaridan komplektlar (trikotajdan tashqari)
14.13.33.0	Ayollar yoki qizlar uchun pidjaklar va bleyzerlar, jaketlar, pidjaksimon kurtkalar (trikotajdan tashqari)
14.13.34.1	Ayollar yoki qizlar uchun ko'ylaklar (trikotajdan tashqari)
14.13.34.2	Ayollar yoki qizlar uchun yubkalar va yubka-shimlar (trikotajdan tashqari)
14.13.35.1	Ayollar yoki qizlar uchun shimlar va bridji (trikotajdan tashqari)

Kod MST	Mahsulotlar nomi
14.13.35.2	Ayollar yoki qizlar uchun ko'krakpechli va yelka tasmali kombinezonlar va shortilar (trikotajdan tashqari)
14.13.40.0	Kiyilgan kiyimlar va iste'molda bo'lgan boshqa buyumlar
14.13.99.0	Ustki kiyimlar ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari
14.14.0*	Ichki kiyimlar ishlab chiqarish
14.14.11.0	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun trikotaj sorochkalar va ko'ylaklar
14.14.12.0	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun trikotaj kalsonlar, trusiklar, pijamalar va xalatlar va shu kabilar
14.14.13.0	Ayollar yoki qizlar uchun trikotaj bluzkalar, ko'ylaklar va bluzonlar
14.14.14.0	Ayollar yoki qizlar uchun trikotaj ichko'ylak, ichki yubkalar, trusiklar, pantalonlar, tungi ko'ylaklar, pijamalar, penyuarlar, xalatlar va shu kabilar
14.14.21.0	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun to'qimachilik materiallardan (trikotajdan tashqari) sorochkalar va ko'ylaklar
14.14.22.1	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun kalsonlar va trusiklar (trikotajdan tashqari)
14.14.22.2	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun tungi ko'ylaklar, pijamalar (trikotajdan tashqari)
14.14.22.9	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun maykalar va boshqa ichdan kiyiladigan fufaykalar, xalatlar va shu kabilar (trikotajdan tashqari)
14.14.23.0	Ayollar yoki qizlar uchun trikotaj bluzkalar, ko'ylaklar va bluzonlar (trikotajdan tashqari)
14.14.24.1	Ayollar yoki qizlar uchun ichko'ylak, ichki yubkalar (trikotajdan tashqari)
14.14.24.2	Ayollar yoki qizlar uchun tungi ko'ylaklar, pijamalar (trikotajdan tashqari)
14.14.24.9	Ayollar yoki qizlar uchun maykalar va boshqa ichdan kiyiladigan fufaykalar, trusiklar, pantalonlar, penyuarlar, xalatlar va shu kabilar (trikotajdan tashqari)
14.14.25.0	Byustgalterlar, korsetlar, belbog'lar, podtyajkalar, bog'ichlar va shu kabi buyumlar va ularning qismlari, jumladan trikotaj yoki to'qilgan buyumlar
14.14.30.0	Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbol-kalar, maykalar va boshqa ichdan kiyiladigan fufaykalar
14.14.99.0	Ichdan kiyiladigan kiyimlar ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari
14.19.0*	Boshqa kiyimlar va aksessuarlar ishlab chiqarish
14.19.11.0	Trikotaj kichik yoshdagi bolalar uchun kiyimlar va bolalar kiyimlarining aksessuarlari
14.19.12.1	Trikotaj sport va chang'ichilar kostyumlari
14.19.12.2	Erkaklar va o'g'il bolalar uchun trikotaj cho'milish kostyumlari
14.19.12.3	Ayollar va qizlar uchun trikotaj cho'milish kostyumlari
14.19.13.0	Trikotaj yoki to'qilgan qo'lqoplar va mitenkalar
14.19.19.0	Boshqa trikotaj kiyimlarning tayyor aksessuarlari va kiyimlarning yoki aksessuarlarning qismlari
14.19.21.0	To'qimachilik materiallaridan kichik yoshdagi bolalar uchun kiyimlar, boshqa kiyimlar, kiyimlarning aksessuarlari va qismlari (mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotajdan tashqari)
14.19.22.1	To'qimachilik materiallaridan sport, chang'ichilar va cho'milish kostyumlari, trikotaj va to'qilganlardan tashqari
14.19.22.2	O'quvchilar uchun formal kiyim
14.19.22.3	To'qimachilik materiallaridan boshqa kiyimlar, trikotaj va to'qilganlardan tashqari
14.19.23.1	Ro'mollar, sholro'mollar, sharflar, mantilyalar, vuallar va shu kabi buyumlar
14.19.23.2	Bo'yinbog'lar, kapalaknuxa galstuk, bo'yinro'mollar
14.19.23.3	Qo'lqoplar va mitenkalar (trikotajdan tashqari)
14.19.23.9	Boshqa guruhlariga kiritilmagan kiyimlarning qismlari yoki kiyim aksessuarlari (trikotajdan tashqari)
14.19.31.1	Tabiiy yoki kompozitsion charmdan qo'lqoplar va mitenkalar (sport qo'lqoplaridan tashqari)
14.19.31.2	Tabiiy yoki kompozitsion charmdan belbog'lar, kamarlar, qurol osib yurish uchun tasmalar, patron sumkalari
14.19.31.9	Tabiiy yoki kompozitsion charmdan kiyimlarning boshqa buyumlari
14.19.32.0	Fetr yoki noto'qima materiallardan tikilgan kiyimlar, biror modda singdirilgan yoki qoplamali kiyimlar
14.19.41.0	Shlyapalar qolipi, bolvankasi, tepa qismi va qalpog'i; shlyapa zagotokalari va yarim fabrikatlari

Kod MST	Mahsulotlar nomi
14.19.42.0	Fetrdan, to'qilgan yoki turli materiallar bo'laklarini birlashtirish yo'li bilan tayyorlangan, trikotaj, to'r polotnolaridan yoki boshqa to'qimachilik materiallaridan, yaxlit bo'lakdan (tasmalardan emas) tayyorlangan boshqa bosh kiyimlar; sochga tutiladigan to'r
14.19.43.2	Tabiiy mo'ynadan tashqari materiallardan tikilgan boshqa bosh kiyimlar
14.19.43.3	Lentalar, astarlar, g'iloqlar, karkaslar, bosh kiyimlarning soyaboni va bog'ichi
14.19.99.0	Boshqa guruhlariga kiritilmagan kiyimlar va aksessuarlarni ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari
14.20.0*	Mo'ynali mahsulotlar ishlab chiqarish
14.20.10.1	Tabiiy mo'ynadan kiyimlar (shubalar, pochapo'stinlar, nimchalar, kostyumlar va b.) (bosh kiyimlardan tashqari)
14.20.10.2	Tabiiy mo'ynadan kiyim aksessuarlari (muftalar, boalar, sharflar, yoqalar i b.)
14.20.10.3	Tabiiy mo'ynadan boshqa buyumlar (bosh kiyimlardan tashqari)
14.20.10.4	Sun'iy mo'ynadan buyumlar
14.20.99.0	Mo'ynali terilardan kiyimlar va kiyim aksessuarlarini ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari
15.12.0*	Chemodanlar, ayollar sumkalari va teridan boshqa buyumlar ishlab chiqarish
15.12.11.0	Turli materiallardan, turli xayvonlar uchun egar-jabduq buyumlari va abzallar
15.12.12.1	Tabiiy yoki kompozitsion charmdan, plastmassa listlardan, to'qimachilik materiallaridan, alyuminiy va boshqa materiallardan ishlangan chamadonlar, sakvoyajlar, kosmetika va pardoz-andoz buyumlari uchun ayollar yo'l sumka-chamadonlari va shu kabi buyumlar
15.12.12.2	Tabiiy yoki kompozitsion charmdan, plastmassa listlardan, to'qimachilik materiallaridan, alyuminiy va boshqa materiallardan ishlangan keyslar, portfellar, maktab raneslari va shu kabi buyumlar
15.12.12.3	Tabiiy yoki kompozitsion charmdan, plastmassa listlardan, to'qimachilik materiallaridan va boshqa materiallardan ishlangan ayollar sumkachalari
15.12.12.4	Turli materiallardan ishlangan, odatda cho'ntak yoki ayollar sumkachasida olib yuriladigan mayda charm galantereya buyumlari
15.12.12.5	Boshqa guruhlariga kiritilmagan, turli materiallardan ishlangan yo'lda tutiladigan va sport sumkalari, ryukzaklar, musiqa asboblari uchun g'iloqlar va shu kabi buyumlar
15.12.12.6	Turli materiallardan ishlangan, shaxsiy gigiyena, tikish yoki kiyim va poyafzal tozalash uchun yo'l to'plamlari (manikyur uchun to'plamlardan tashqari)
15.12.13.0	Qo'l soatlari uchun metallardan ishlanmagan tasmalar, qayishlar, bilaguzuklar va ularning qismlari
15.12.19.0	Boshqa guruhlariga kiritilmagan, tabiiy yoki kompozitsion charmdan ishlangan boshqa buyumlar, jumladan mashina va mexanizmlarda foydalaniladigan buyumlar
15.12.99.0	Egar-jabduq buyumlari, chamadonlar, sakvoyajlar va shu kabi buyumlar ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari
15.20.0*	Poyafzal ishlab chiqarish
15.20.11.1	Kalish
15.20.11.9	Suv o'tkazmaydigan, usti va tagcharmi rezina yoki plastmassadan ishlangan boshqa poyafzal (kalishdan tashqari)
15.20.12.0	Usti va tagcharmi rezina yoki plastmassadan ishlangan poyafzal (suv o'tkazmaydigan, sport uchun mo'ljallangan va uchiga himoyalovchi metall qo'yilgan poyafzaldan tashqari)
15.20.13.0	Usti tabiiy yoki kompozitsion charmdan ishlangan poyafzal (sport uchun mo'ljallangan, uchiga himoyalovchi metall qo'yilgan va turli maxsus poyafzaldan tashqari)
15.20.14.0	Usti to'qimachilik materiallaridan ishlangan poyafzal (sport uchun mo'ljallangan poyafzaldan tashqari)
15.20.21.0	Tennis, basketbol, gimnastika poyafzali, mashq qilish uchun va shu kabi poyafzal
15.20.29.0	Boshqa sport poyafzali (chang'i va konki uchun botinkalardan tashqari)
15.20.31.0	Uchiga himoyalovchi metall qo'yilgan poyafzal
15.20.32.0	Yog'och poyafzal, turli maxsus poyafzal va boshqa guruhlariga kiritilmagan poyafzal
15.20.40.0	Charm poyafzalning qismlari, qo'shimcha pataklar, tovon ostiga yostiqchalar va shu kabi olib qo'yiladigan buyumlar; getr, gamash va shu kabi buyumlar va ularning qismlari
15.20.99.0	Poyafzal ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari

Kod MST	Mahsulotlar nomi
16.29.0	Boshqa yog'och buyumlar ishlab chiqarish; po'kak, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish
16.29.11.0	Yog'ochdan ishlangan asboblari, asboblarning korpusi, asboblarning dastasi, cho'tkalar va supurgilarning dastasi, chekish uchun trubkalarni tayyorlash uchun tanavorlar, etikdo'zlik qoliqlari va poyafzalni kengaytirish uchun asboblari
16.29.12.0	Yog'ochdan ishlangan oshxona anjomlari
16.29.13.0	Yog'och mozaika va qadama naqshli yog'och, yog'ochdan zargarlik buyumlari yoki pichoqlar uchun g'iloqlar, xaykallari va boshqa bezatish uchun buyumlar
16.29.14.0	Kartinalar, suratlar, oynalar yoki shu kabi predmetlar uchun yog'och ramalar va boshqa yog'och buyumlar
16.29.21.0	Dumaloqlangan yoki brusok, plastina, list yoki tasma shaklida qo'pol ishlov berilgan tabiiy po'kak; maydalangan, qumoqlangan yoki tuyilgan po'kak; po'kak chiqindilari
16.29.22.0	Tabiiy po'kakdan ishlangan buyumlar
16.29.23.0	Aglomeratsiya qilingan po'kakdan brusoklar, plastinalar, listlar va turli shakldagi tasmalar, yaxlit silindrlar
16.29.24.0	Aglomeratsiya qilingan po'kak; aglomeratsiya qilingan po'kakdan boshqa guruhlariga kiritilmagan buyumlar
16.29.25.0	Poxoldan, espartodan yoki to'qish uchun boshqa materiallardan ishlangan buyumlar; savatlar va to'qilgan buyumlar
16.29.91.0	Yog'och va po'kakni (mebel ishlab chiqarishdan tashqari), poxol va to'qish uchun boshqa materiallarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar
16.29.99.0	Yog'ochdan, po'kakdan, poxol va to'qish uchun boshqa materiallardan boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari
17.11.0*	Qog'oz massasi va sellyuloza ishlab chiqarish
17.11.11.0	Eriydigan navli yog'och sellyulozasi
17.11.12.0	Natron yoki sulfatli yog'och sellyulozasi (eriydigan navlardan tashqari)
17.11.13.0	Sulfitli yog'och sellyulozasi (eriydigan navlardan tashqari)
17.11.14.1	Mexanik, jumladan termomexanik, yog'och massasi
17.11.14.2	Yarim kimyoviy yog'och sellyulozasi (massasi) (mexanik va kimyoviy eritish usullarini birlashtirib olingan)
17.11.14.3	Boshqa tolali materiallardan (yog'ochdan tashqari) olingan sellyuloza (massa)
17.11.99.0	Sellyuloza ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari
17.12.0*	Qog'oz va karton ishlab chiqarish
17.12.11.0	O'ram yoki varaqlardagi gazeta qog'ozlari
17.12.12.0	Qo'lda quyilgan qog'oz va karton
17.12.13.1	Foto, issiqlik yoki elektrga ta'sirchan qog'oz ishlab chiqarish uchun asos sifatida ishlatiladigan qog'oz va karton
17.12.13.2	Gulqog'ozlar uchun asos sifatida ishlatiladigan qog'oz
17.12.13.3	Kopirka qog'oz uchun asos sifatida ishlatiladigan qog'oz
17.12.14.0	Grafika maqsadlari uchun ishlatiladigan boshqa qog'oz va kartonlar
17.12.20.0	Gigiyena yoki kosmetika salftikalari, sochiqlar yoki dasturxonlar tayyorlash uchun qog'oz, sellyuloza paxta va sellyuloza tolalaridan tayyorlangan polotno
17.12.31.0	Jilosiz, oqlanmagan tara karton (kraft-layner)
17.12.32.0	Jilosiz tara karton (kraft-layner) (oqlanmagan kartondan tashqari)
17.12.33.0	Yarim sellyulozadan tayyorlangan gofirovka qilish uchun qog'oz (o'rta taramlangan)
17.12.34.0	Gofirovka qilish uchun qayta tiklangan (makulaturadan tayyorlangan) va boshqa qog'oz
17.12.35.0	Test-layner (gofirovka qilingan kartonning yassi qatlamlari uchun qayta tiklangan karton)
17.12.41.0	Oqlanmagan boshqa kraft-qog'oz va karton; narsa o'rash va joylash uchun kraft-qog'oz, g'ijim yoki gofirovka qilingan kraft-qog'oz
17.12.42.0	Narsa o'raydigan sulfit qog'oz va boshqa jilosiz qog'ozlar (yozuv qog'ozlari, pechatlash yoki boshqa grafik maqsadlarda ishlatiladigan qog'ozdan tashqari)

Kod MST	Mahsulotlar nomi
17.12.43.1	Filtrlovchi qog'oz va karton
17.12.43.2	Tomga yopiladigan karton
17.12.44.0	Kengligi 5 sm dan ko'p o'ramlardagi papiros qog'ozi (formati bo'yicha kesilgan yoki kitobcha yo trubka shaklidagi qog'ozdan tashqari)
17.12.51.0	Ichki tomoni kulrang, jilosiz karton
17.12.59.0	Jilosiz boshqa kartonlar
17.12.60.0	O'simlikdan olingan pergament, yog' o'tkazmaydigan qog'oz, kalka, pergamin va boshqa shaffof yoki yarim shaffof yaltiroq qog'oz
17.12.71.0	O'ramlar yoki varaqlardagi, sirtiga ishlov berilmagan yoki to'yintirilmagan ko'p qatlamli qog'oz va karton
17.12.72.0	G'ijim, gofirovka qilingan, bosma naqsh tushirilgan yoki teshib chiqilgan qog'oz va karton
17.12.73.0	Yozuv qog'ozi, pechatlash yoki boshqa grafik maqsadlarda ishlatiladigan, kaolin yoki boshqa anorganik moddalar bilan ishlov berilgan qog'oz va karton
17.12.74.0	Kaolin yoki boshqa anorganik moddalar bilan qoplangan (jilolangan) kraft-qog'oz (yozuv qog'ozi, pechatlash yoki boshqa grafik maqsadlarda ishlatiladigan qog'ozdan tashqari)
17.12.75.0	Kaolin yoki boshqa anorganik moddalar bilan qoplangan (jilolangan) kraft-karton (yozuv qog'ozi, pechatlash yoki boshqa grafik maqsadlarda ishlatiladiganidan tashqari)
17.12.76.0	O'ramlar yoki varaqlardagi uglerodli kopirka qog'oz, o'zi nusxalanuvchi va boshqa kopirka yoki nusxa ko'chirish uchun qog'ozlar
17.12.77.0	O'ramlar yoki varaqlardagi, sellyuloza tolasidan ishlangan, qoplamali, jilolangan, to'yintirilgan, bo'yalgan yoki bosma belgili qog'oz, karton, sellyuloza paxtasi va polotnosi
17.12.78.0	Kaolin yoki boshqa anorganik moddalar bilan qoplangan, ichki tomoni kulrang karton (yozuv qog'ozi, pechatlash yoki boshqa grafik maqsadlarda ishlatiladiganidan tashqari)
17.12.79.0	Kaolin yoki boshqa anorganik moddalar bilan qoplangan, boshqa karton (yozuv qog'ozi, pechatlash yoki boshqa grafik maqsadlarda ishlatiladiganidan tashqari)
17.12.99.0	Qog'oz va karton ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari
17.22.0*	Xo'jalik-maishiy va sanitariya-gigiyenaga mo'ljallangan qog'oz buyumlar ishlab chiqarish
17.22.11.1	Tualet qog'ozi
17.22.11.2	Qog'oz massasi, qog'oz, sellyuloza paxta yoki sellyuloza tolasidan ro'molchalar, gigiyenik yoki kosmetik salfetkalar va sochiqlar
17.22.11.3	Qog'oz massasi, qog'oz, sellyuloza paxta yoki sellyuloza tolasidan oshxona uchun dasturxon va sochiqlar
